

RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNI REABILITATSIYA QILISH JARAYONIDA PSIXOTERAPIYA VA PSIXOKORREKTSIYA USULLARI

Mirzayeva Muqaddas Bolteyavna- Jizzax shaxri 5-sonli DKTIMTT

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari yuqori darajadagi ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokorga, tarbiyachi, pedagogga bog'lanib qolishida psixoterapiyani samarali qo'llash uchun keng imkoniyatlarning samarali omillari o'ziga xos jihatlari ilmiy yondoshuvlar asosida yoritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Psixoterapiya, kompleks davolash, ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokor, tarbiyachi, pedagog, "kasal emas, sog'lom", nevrotik ta'sir etish shakllari.

Psixoterapiya va psixokorreksiya - bu insonlarning salomatligini saqlash maqsadida o'zaro bir biri bilan bog'langan psixologik ta'sir etish shakllaridir.

Psixoterapiya- bu psixikaga kasallik hodisalarini bartaraf etish yoki oldini olish, o'ziga o'zining nuqsoniga nisbatan to'g'ri munosabatni rivojlantirish maqsadida kompleks davolovchi- psixologik – pedagogik ta'sir etishdir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda psixoterapiya davolovchi- psixologik – pedagogik korreksion tadbirlar, davolashning ta'lim va tarbiyaning barcha jarayonlari bilan uzviy bog'liq .Psixoterapiya o'tkazish uchun mutaxassis bola kasalligi bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari (yuqori darajadagi ishonuvchanlik, hissiy ta'sirchanlik, shifokorga, tarbiyachi, pedagogga bog'lanib qolishi) psixoterapiyani samarali qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochadi. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida erta ikkilamchi reaktiv xarakterdagi hissiy buzilishlar kuzatilib, ular ishonchsizlik, nutqiy muloqotdan qo'rqish, kayfiyatning tushkunligi, haddan tashqari tez hafa bo'lishida, havsirash, qo'zg'aluvchanligidan namoyon bo'ladi. Bu hissiy buzilishlar bolaning

nerv tizimini yanada zaiflashtirdai va turli nevroitik reaksiyalarning rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi (duduqlanish, enurez, qo'rquv, qaltirash va hakoza).

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'yinli psixoterapiya keng qo'llaniladi. O'yin jarayonida bola o'zini to'g'ri tutishga o'rgatiladi.

Korreksion pedagogikaning maqsadi – sog'lom bolalarni ta'lim va tarbiyasi emas, balki, nuqsonli bolalarni ularning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta tarbiyalash va qayta tarbiyalashdir. Muloqotning asosiy vositasi- so'zdir. Aynan manashu psixoterapiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Rivojlanishida turli xil buzilishlarga ega bolalar va o'smirlar bilan ishlashda turli xil psixoterapevtik metodlar keng qo'llaniladi: guruhli, yakka, oilaviy, ratsional va suggestiv.

Psixokorreksiyaning metodlari va usullari “kasal emas, sog'lom”, nevroitik ta'sir etish shakllari va dizadaptatsiya hulq atvorlari shakllana boshlagani haqida bolalar gap ketganida birinchi rejaga chiqadi. SHu tariqa, psixoterapiyaga davolash metodi sifatida, psixologik korrektsiyaga esa, -bolada psixologik havf - hatar omillarini qayta qurish, oilada iliq munosabatlarni yaratuvchi profilaktika metodi sifatida qarash mumkin. Psixokorreksiyaning boshlang'ich bosqichi maxsus tanlangan psixologik metodikalardan foydalanib psixik jarayonlarni turli tomonlarini, xususiyatlarini, shaxsiy sifatlarini va faoliyat turlarini kompleks tashxis qilish hisoblanadi.

Psixokorreksion kompleks o'zaro bog'langan bir nechta bo'limlardan tashkil topgan. Har bir bo'lim turli xil vazifalarni amalga oshiradi va maxsus tashkil etilgan metodlar va usullardan tashkil topgan.

Birinchi bo'lim- tashxislovchi.

Maqsadalar:

- psixologik havf –xatar omillarini tashxislash ;
- har bir oilada psixologik havf –xatar omillarini shakllanishini;
- psixologik korrektsiyaning umumiy dasturini shakllantirishni.

Ikkinchi bo'lim- amalga oshiruvchi .

Maqsadalar:

- engillashtiruvchi va bo'shashtiruvchi samaraga erishish;
- ota onalarda bolaning hatti harakatlarida va oilaviy munosabatlarda ijobiy o'zgarishlarga erishish imkoniyatiga ishonchni orttirish ;
- psixologik korrektsiya maqsadlari, talablarini qayta ishlash;
- faol psixokorreksion ishlarni amalga oshirishga sharoit yaratish.

Uchinchi bo'lim- korrektsion.

Maqsadlar:

- bolani rivojlanish jarayonini faollashtirish;
- inqirozli davrning negativ fazasidan ijobiy fazasiga o'tishga erishish;
- o'yin faoliyatini jadallashtirish;
- o'z "Men" ini ochishga erishish;
- oiladagi inqirozni bartaraf etish;
- tarbiya motivlarini anglash sohasini kengaytirish;
- yetakchi motivlar o'rtasidagi qarama qarshiliklarni bartaraf etish;
- ota onalarning pozitsiyalarini o'zgartirish, ota onalarni bola bilan muloqat qilishning yangi shakllariga o'rgatish, oilaviy tarbiyaning psixologiyasi haqidagi bilimlarini kengaytirish.

To'rtinchi bo'lim- samaradorlikni baholash.

Maqsadlar:

- korrektsiya jarayonida psixologik havf xatar omillarini o'zgarishini baholash;
- korrektsiya samarasini baholash.

Psixoterapiya – defektologiyada, xususan, logopediyada duduqlanishni bartaraf etishda rivojlangan.

Ammo, keyingi yillarda surdopedagogika va oligofrenopedagogikada ham psixoterapevtik korrektsiya bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi.

Psixoterapiya metodlarini logopediyada qo'llanilishi.

Nafas ustida ishlash psixoterapevtik tizimlarning ko'pchiligida ahamiyatli o'rinni egallaydi. Asosan, A.N. Strel'nikova tomonidan ishlab chiqilgan nafas mashqlaridan foydalanilib, ular past qovurg'ali nafasni avtomatlashishiga olib keladi, turg'un nafas buzilishlarini bartaraf qiladi, bemorlarga kuchli hissiy-ijobiy ta'sir ko'rsatadi, olingan nafasda nutqni avtomatlashtiradi.

Psixoterapiyani korrektsion pedagogikada qo'llash imkoniyatlari

So'nggi yillarda korrektsiyaning shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy – psixologik qonunuyatlarini qo'llashga asoslangan psixologik metodlarini jadal rivojlanishi bilan bog'liq ravishda psixoterapiyaning notibbiy modellari, xususan, psixologik modeli paydo bo'ldi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar bilan psixokorrektsion ishlar ularni maxsus maktabga kelgan vaqtdan boshlaboq boshlanishi va ikkita asosiy vazifani bajarishi kerak- ulardagi maxsus yetilmagan funktsiyalarni bartaraf etish va individual va shaxslararo muammolarini bartaraf etishga xizmat qilishi kerak. Demak, kichik maktab yoshidagi ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarda maqsadga yo'naltirilgan o'yinli faoliyatni qo'llash ularda o'qishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga, sinfdoshlari va o'qituvchilar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini muvoffaqiyatli egallashga, bolalarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini ortishiga xizmat qiladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga mo'ljallangan maxsus maktab internatlardagi sharta bo'g'in bolalari bilan psixokorrektsion ishlarda korrektsiyaning ijtimoiy psixologik trening ko'rinishidagi individual va guruhli metodlari qo'llaniladi, ular o'quvchilarda o'zlarini qadrlash, boshqalar shaxsini harmat qilish, o'zini to'g'ri tutish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Funksional eshitish buzilishining barcha turlaridagi kasalliklar simptomatikasi va rivojlanish sabablarini xisobga olgan holda ularni turt guruhga ajratish mumkin :

1) psixogen sabablarga kura eshituv buzilishi : isterik karlik , isterik kar sokovlik , surdomutizim .

2) nopisixogen eshitish buzilishlari : funktsional nerv –psixik buzilishlarida somatik va nevrologik kasalliklarda idiopatik funktsional gipo va giper akuziyada ;

3) taqlidiy eshituv buzilishlari : bolalardagi taqlidiy karlik , o'zini karlikka solish ,shaxslarda xavotirli soxta karlik :

4) endogen psixik kasalliklar va psixik rivojlanmashganlikdagi eshitish buzilishlari .

Funktsional va organik eshitish buzilishlarini differentsial tadqiq qilishda audiometrik ma'lumotlardan tashkari bemorning subektiv xolatini shaxsiy ta'sirlanish xususiyatlarini xisobga olish , iloji boricha psixologik tekshirish va psixiyator ko'rigidan o'tkazish zarur. Bemorlarda davolovchi pedagogik ta'sir maqsadida psixoterapevtik davolashni o'tkazishda bolalarning individual xususiyatlarini, uning ruxiy rivojlanishini sustlashganini xisobga olish kerak. Davolovchi pedagogik tadbirlarning vazifalari quyidagilardan iborat: bemorlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish ; nutqiy faollikni rivojlantirish, shuningdek to'g'ri gapirish muloqat kobiliyatini rivojlantirish; bemorlarda eshitishni rivojlantirishga faol munosabatni tarbiyalash, Ularni sodir bulayotgan yaxshilinishga nisbatan xursand bulishga o'rgatish; bemorlarda o'zlarining to'la qonli emasligi haqidagi fikrlarni yo'qotish.

Xulosa qilib aytganda psixoterapevtik davolovchi –reabilitatsion tadbirlarda defektologlar, psixologlar pedagoglar faol ishtirok etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Majidov N.M. Umumiy Nevropatologiya. T.: “Abu ali Inb Sino”, 2018 y.
2. Lyapidevskiy S.S. Nevropatologiya. M.: “Vlados”, 2017
3. Lyapidevskiy S.S. Klinika Oligofrenii. M.: “Vlados”, 2016 y.
4. Xo'jaeva N.M., SHoyusupova A.YU. Psixatriya T 20111 y.
5. Portnov A.A., Fedotov D.D. T.: “Meditsina ”, 20174 y.
6. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические особенности формирования навыков здорового образа жизни у детей с умственной

- осталостью в семейных условиях. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1).
извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918
7. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674
8. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897
9. Akramova, X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови . *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(12), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162
10. Akramova, X. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994
11. Akramova, X. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o‘stirishning o‘ziga xosligi. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025
12. Malikaxon Qodirova, МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari
13. Malikaxon Qodirova, МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
14. Malikaxon Qodirova, O‘SMIRLAR PSIXOLOGIIYASI VA O‘SMIR XULQ-ATVORINING O‘ZIGA HOSLIGI, Журнал Педагогики и психологии в

современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

15. Malikaxon Qodirova, AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

16. Malikaxon Qodirova, ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education